

SHRI AUROBINDO GXOSHNING PEDAGOGIK QARASHLARI: ZAMONAVIY AHAMIYATI

Boydadaev Abdurrohmon Tolibjon o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

E-mail: a.boidadaev@yandex.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada muallif 20 asr hind falsafasining taniqli namoyondasi Shri Aurobindo Gxoshning pedagogik qarashlarini tahlil, uning zamonaviy ta'lim tizimi uchun ahamiyatini o'rganib chiqqan. Muallifning fikricha, Aurobindo Gxoshning integral pedagogika kontseptsiyasi bugungi kunda yoshlarda ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda o'ziga xos o'rinni egallaydi.

Kalit so'zlar: *ta'lim, pedagogika, integral pedagogika, ta'lim falsafasi.*

THE PEDAGOGICAL PERSPECTIVE OF SRI AUROBINDO GHOSH: A CONTEMPORARY RELEVANCE

Boydadaev Abdurrokhmon Tolibjon o'g'li

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

E-mail: a.boidadaev@yandex.com

Abstract. In this article, the author analyses the pedagogical ideas of Sri Aurobindo Ghosh, a notable representative of Indian philosophy in the 20th century. The author also examines the significance of these ideas for the modern educational system. According to the author, Aurobindo's concept of integral pedagogy occupies a special place in the development of spiritual values among younger generations.

Keywords: *education, pedagogy, integral pedagogy, philosophy of education.*

Bugungi kunda ta'lim tizimi tubdan transformatsiya jarayonlaridan o'tayapti va bunga bevosita globalizatsiya jarayonlari to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilyapti. Bunda ta'limning madaniy sharoitlari muhim ahamiyatiga ega, chunki bugungi kunda madaniyatlararo muloqot aynan ta'lim tizimida o'z ijobiy natijalarini berishi mumkin. Shuni ham ta'kidlash joizki, madaniyatlararo falsafa kontekstida biz nafaqat dialog, balki polilog haqida gapirishimiz mumkin [1, 86], ya'ni ushbu muloqot jarayonida faqatgina ikki tomonlar emas, balki ko'p tomonlar ishtirok etadi. Ta'limning madaniyatlararo fundamenti kuchayishi bilan birga biz shuni kuzatishimiz mumkinki, ta'lim falsafasi va pedagogika o'rtasida uzviy aloqa kuchayib, takomillashib bormoqda. Xususan, ekzistentsializm – bu nafaqat falsafa, balki o'ziga xos ta'lim nazariyasidir [2, 91]. Shu bilan birga, Karl Popperring tanqidiy ratsionalizmi va ochiq jamiyat kontseptsiyasi ham ta'limiy ahamiyatga ega [3, 30]. Mazkur kontekstda shuni aytib o'tish lozimki, 20 asr hind falsafasining yaqqol namoyondasi bo'lgan Shri Aurobindo Gxoshning falsafasida muhim pedagogik g'oyalar ilgari surilgan va yaxlit pedagogik kontseptsiya, ya'ni integral pedagogika kontseptsiyasiga aylangan.

Shri Aurobindo Gxosh ta'limni umrbod ahamiyatga e'tibor qaratgan. Uning fikricha, inson butun umr davomida ta'lim olishi, yangi bilimlarni egallashi lozim [4,96]. Buning uchun kuchli ta'lim tizimi mavjud bo'lishi kerak. Ma'lumki, hind madaniyatida kastalar instituti jamiyatning asosiy hisoblanadi, ammo Aurobindo fikricha ta'lim tizimida bunday cheklovlar bo'lishiga yo'l qo'yilmay kerak, chunki inson ta'lim olsa, kamolotga intilsa, jamiyat ham takomillashadi. Shunga mos ravishda faylasuf ta'limning ma'naviy-axloqiy fundamentiga alohida e'tibor qaratgan, chunki insonga nafaqat bilimlarni berish kerak, balki unga yaxshi tarbiya ham berish muhim. Shri Aurobindo ta'limda o'qituvchining o'rniga alohida e'tibor qaratgan, chunki pedagog o'z o'quvchilari uchun ma'naviyatning yaqqol namunasi va shu

munosabati bilan jamiyatda pedagogning maqomi doimo yuqori darajada bo'lishi lozim. Ma'lumki, hind madaniyatining asosida kuchli diniy asos turadi va shu sababli Aurobindo Gxosh kontsepsiyasida o'qituvchi ilohiy bilim sohibi hisoblanadi, unga nisbatan bo'lgan ehtirom Buyuk Braxmanga bo'lgan izzat-ikrom bilan tenglashtiriladi. Ushbu qarashlar muayyan darajada bizning jamiyatimiz uchun ham dolzarb ahamiyatga ega, ayniqsa "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi kontekstida [5]. Ammo mutafakkir muhim bir jihatga e'tibor ham qaratgan, ya'ni milliy ta'lim tizimini dunyodagi ta'lim tendentsiyalariga mos ravishda isloh qilish kerak, aks holda mamlakat ta'lim tizimi yangi chaqirig'larga javob bera olmay qoladi.

Integral yoga kontsepsiyasi Aurobindoning pedagogik qarashlarida ham o'z aksini topadi. Uning fikricha, ta'lim jarayonida inson tomonidan yangi bilimlarni egallashga yogadagi turli amaliyotlar ijobiy ta'sir qila oladi, ong va tafakkurni yanada yuqori darajaga ko'taradi. Shu jihatlar tufayli Gxoshning qarashlari integral pedagogika deb ataladi. Natijada inson muvozanat va ma'naviy uyg'unlikka erishadi [6, 192]. Lekin bu uchun ta'lim tizimi doirasida alohida e'tiborni maktab ta'limiga qaratish muhim. Birinchi navbatda maktabdagi ta'lim bolalarda yuksak ma'naviyatni o'stirishga qaratilgan bo'lishi va mas'uliyat hissini shakllantirishga qaratilishi kerak [4, 99]. Ammo shu bilan birga bolaga muayyan darajada erkinlik berish lozim, uni qiziqtiradigan sohani o'rganishiga barcha sharoitlarni yaratish va unga mos keladigan ustozni tanlash kerak – bu Gxosh integral pedagogikasining bazaviy tamoyili hisoblanadi.

Hind madaniyatida zohidlik – keng tarqalgan fenomen va bu integral pedagogikada ham o'z aksini topgan. Aurobindo nuqtai nazaridan, barcha o'quvchilarda moddiy boyliklarga nisbatan bog'liqlikga barham berish kerak, ularning asosiy e'tibori aynan ma'naviyat va ma'rifatga qaratilishi lozim. Boylik orttirish, manfaatparastlik va tamagirlik – bularning barchasini qutilish uchun ilk qadam aynan maktabdan boshlanishi kerak. Ushbu his-tuyg'ularga berilgan inson hech qachon haqiqiy bilimga ega bo'lmaydi, komil inson darajasiga ham yetmaydi va bu jamiyatga salbiy ta'sir qiladi. Muhimki, ushbu fikrlar muayyan ma'noda tasavvuf ta'limoti hamda 20 asr frantsuz faylasufi Anri Bergson qarashlariga ham yaqin [7].

Aurobindo Gxoshning integral pedagogikasida shaxs ma'naviyati va pedagog maqomiga oid muhim nuqtai nazarlar mavjud. Shu bilan birga, mutafakkir ta'limning yaxlitligiga ham diqqat-e'tibor qaratgan [8, 42]. Bu degani ta'lim jarayonida nafaqat ma'naviy tarbiya, balki jismoniy tarbiya va intellektni rivojlantirish o'ziga xos o'ringa ega. Ta'lim dasturlari ushbu tomonlarning barchasini qamrab olishi kerak. Bundan tashqari, mutafakkir yoshlarda yetakchilik salohiyatini o'stirishga urg'u bergan [8, 48]. Ushbu yetakchilar oliy axloqiy qadriyatlarga ega bo'lishi va qarorlarni mas'uliyatli qabul qilishni o'rganishlari, jamoani kreativligi va tashabbuskorligini oshiradi, shaxsiy o'sish uchun yo'l ochadi.

Integral pedagogika o'z nomidan nafaqat falsafiy, balki pedagogik kontsepsiyadir. Shri Aurobindo Gxoshning o'zi ham hind, ham G'arbiy Yevropa madaniyatini chuqur o'rgangan va amaliy tajribaga ega bo'lgan. Uning pedagogik qarashlarida madaniy va falsafiy jihatlarning sinteziga oid fikrlar ham bildirilgan. Yuqorida biz zamonaviy ta'lim muhitida madaniyatlararo muloqotga e'tibor qaratgan edik. Integral pedagogikada ham ushbu masala ko'tarilgan, chunki har qanday ta'lim tizimi o'z taraqqiyotida madaniyatlararo tajriba almashinuvga asoslanadi. Aurobindo hind jamiyatidagi an'anaviy ta'lim tizimi taraqqiyotiga salbiy ta'sir o'tkazganini tan olgan va shu tufayli ham ta'lim olishda hech qanday kasta to'sqinlari bo'lishi mumkin emasligiga oid fikrlarni yuritgan. Bugungi kunda ko'rishimiz mumkinki, aynan madaniyatlararo aloqalar ta'lim tizimi rivojini yanada kuchaytiradi. Bundan tashqari, Gxosh tomonidan ilgari surilgan tinchlik va insonparvarlik g'oyalari aynan madaniyatlararo muloqot orqali amalga oshirilishi mumkin.

Yuqoridagilarga kelib chiqib ko'rishimiz mumkinki, Shri Aurobindo Gxoshning integral pedagogikasi quyidagi jihatlarga asoslangan:

- ma'naviyat va qadriyatlarni kuchaytirish;

- pedagog jamiyatda alohida, o'ziga xos o'ringa ega bo'lishi;
- o'quvchilarni komil inson sifatida tarbiyalash uchun ularga erkinlik berish va shu bilan birga mas'uliyatni o'stirish;
- ta'lim tizimida yetakchilarni tarbiyalash;
- ta'limning madaniyatlararo xarakteriga urg'u berish.

Ijobiy tomonlar bilan birga integral pedagogikada ayrim kamchiliklar ham kuzatiladi. Ular quyidagicha:

1. Inson ma'naviyatini o'lchashga oid uslub mavjud emasligi, ma'naviyatga me'yordan katta urg'u qaratilganligi. Buni hind madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan tushuntirish mumkin.

2. Ma'naviyatga urg'u berilganligi natijasida amaliy ko'nikmalarga yetarli darajada e'tibor qaratilmaganligi. Bugungi kunda aynan amaliy ko'nikma va malakalar har qanday shaxs uchun katta ahamiyatga ega.

Shunga qaramay, aytishimiz mumkinki, Shri Aurobindo Gxoshning integral pedagogikasi zamonaviy ta'lim tizimi uchun muhim kontseptual xulosalarni beradi va O'zbekiston ta'lim tizimi uchun juda dolzarb, chunki mutafakkirning g'oyalari va qarashlari ko'p tomonlama bizning madaniyatimizga yaqin turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov R., Naumenko O., Saidova K., Elmuratov R., Bekbaev R. The Phenomenon of Education in the Context of an Intercultural Philosophical Approach // *Wisdom*. – 2022. – №4(24). – P.84-90. DOI: 10.24234/wisdom.v24i4.941.
2. Каримов Р. Экзистенциализм как теория обучения // *MMIT Proceedings*. 25.05.2023. – P.90-93.
3. Бекбаев Р. Феномен образования в контексте теории открытого общества Карла Поппера // *MMIT Proceedings*. 25.05.2023. – P.29-31.
4. Sri Aurobindo. Archives and Research // Pondicherry: Sri Aurobindo Ashram Trust. – 1952. – №2.
5. O'zbekiston Respublikasining "Pedagog maqomi to'g'risida"gi 01.02.2024 yildagi O'RQ-901-sonli qonuni. Navola: <https://lex.uz/pdfs/6786401>.
6. Кабулниязова Г.Т. Компаративный анализ представлений Джалаладдина Руми, Анри Бергсона и Шри Ауробиндо Гхоша об интуиции и духовной любви // *Вопросы философии*. – 2021. – №11. – С.188-197. DOI: 10.21146/0042-8744-2021-11-188-197.
7. Кабулниязова Г.Т. Спонтанно-образная память в творчестве Анри Бергсона и суфизме (сравнительный анализ) // *Вопросы философии*. – 2022. – №12. – С.159-167. DOI: 10.21146/0042-8744-2022-12-159-167.
8. Sri Aurobindo. On Himself. Pondicherry: Sri Aurobindo Ashram Trust. 1972.